

«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
YAGONA AKSIYADORINING
QARORIDAN KO‘CHIRMA

2023 yil «18» dekabr

№ 12/1

Toshkent sh.

Bank ta’sis hujjatlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

...

...

...

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq jamiyat manzili o‘zgarishi munosabati bilan jamiyat ustaviga o‘zgartirish kiritish davlat ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq jamiyatning joylashgan yeri (pochta manzili) o‘zgargan taqdirda litsenziya qayta rasmiylashtirishi shartligi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustavi va ““Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadori to‘g‘risidagi nizom” talablaridan kelib chiqib, Yagona aksiyador

qaror qiladi:

1. Bank Ustaviga kiritilgan o‘zgartirish matni ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Bank Ustaviga kiritilgan o‘zgartirish amaldagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro‘yxatdan o‘tkazilsin.
3. Bank joylashgan manzil bo‘yicha ko‘chaning nomi o‘zgarishi munosabati bilan bank litsenziyasida ko‘rsatilgan manzildagi ko‘chaning nomini muvofiqlashtirish maqsadida litsenziya qayta rasmiylashtirilsin.
4. Ushbu qarorning ijrosini ta’minalash Bank Boshqaruviga hamda ijrosini nazorat qilish Bank Kuzatuv kengashiga zimmasiga yuklatilsin.

Yagona aksiyador nomidan,


“Leader Finance” MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

Ko‘chirma asligi to‘g‘ri:



T.Nurmuratov